

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

## TURISTLARNI O'ZBEKISTONGA JALB QILISH MUAMMOLARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Turizm ( faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ) yo'nalishi talabalari

**Shodiyev Sayidaxmad Abdumalikovich**

[sayidaxmadshodiyev30@gmail.com](mailto:sayidaxmadshodiyev30@gmail.com)

**Shoimova Go'zal Qahramon qizi**

[s21752065@gmail.com](mailto:s21752065@gmail.com)

**Xolnazarov Samandar Astanaqul o'g'li**

[xolnazarovsamandar7@gmail.com](mailto:xolnazarovsamandar7@gmail.com)

**Xoliqova Nargiza Xoltura qizi**

[nargizaxoliqova38@gmail.com](mailto:nargizaxoliqova38@gmail.com)

**Xudoyqulov Abdulvohid Panji o'g'li**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlaktimizda turizmni rivojlantirish doirasidagi fikrlar ilgari surilgan. Shu bilan birgalikda qator muammolar keltirib o'tilgan. Muammoli holatlar ,kamchiliklar sanab o'tilgan. Albatta yechim va takliflar ham kiritilgan. Madaniy obektlarimizga e'tibor kamligi kabi kamchiliklarimiz keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Turizm industiriyasi, shonli tarix, madaniy yodgorliklar, xizmat ko'rsatish, malakali kadr, firibgarlik, yo'l qiyinchiliklari, reklama.

Barchamizga ma'lumki, turizmni shakllanishi va rivojlanishi turistik resurslarning salohiyatiga bog'liqdir. Mamlakat qanchalik turli-tuman turistik resurslarga ega bo'lsa, turizmni rivojlanishi shuncha oson kechadi.

Shuni alohida takidlash kerakki mamlakatimizda turizm industriyasini rivojlantirish uchun ulkan turistik resurs mavjud. Bu kabi imkoniyat dunyoni sanoqli davlatlarida bor. Go'zal tabiat, xilma-xil iqlim, shonli tarix, madaniy yodgorliklar, hududlarning bir-birini takrorlamaydigan o'ziga xos ananalari bularning hammasi yurtimizda mujassam.

Turizm mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan xizmat ko'rsatish industriya sohasi bo'lib, unda ko'rsatiladigan xizmatlar ham olish resurslari mavjud bulgan xududlarga sayyohlar tomonidan borib iste'mol qilinadi. Turizm mehnatni ko'p talab qiladigan tarmoq sifatida nafaqat turizmدا, balki

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

sayohatchilar isteʼmol qiladigan xilma-xil mahsulot va tovarlarni ishlab chiqaradigan sanoat, qishloq xujaligi hamda ularga xizmat koʻrsatadigan transport va infratuzilma tarmoqlarida ham koʻplab ish oʻrinlarini yaratishga, shuningdek, mamlakatga xorijiy valyuta tushumlarini kupaytirishga, shu asoslarda iqtisodiy faoliyatni sezilarli kengaytirishga imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimizga turistlar kelishi oqimini pasaytiradigan omillar afsuski talaygina. Bularga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

- qoʻshni davlatda boʻlayotgan siyosiy xolat
- xizmat koʻrsatish sohasining sustligi yoki sifatsizligi
- yoʻl infratuzilmasidagi qiyinchiliklar
- ijtimoiy aloqaning sustligi baʼzi joylarda mavjud emasligi
- turistlar foydalanishi uchun yagona saytning yoʻqligi
- firibgarlik holatlarining kuzatilishi
- malakali kadrlarning yetishmasligi
- turistlarni jalb qila oladigan reklama resurslarining kamligi
- qishloq hududlariga yetarli elektr energiyasining yetib kelmasligi
- qishloq dam olish maskanlarida sivilizatsiyaning yoʻqligi

Shu kabi kamchiliklar bilan birgalikda bir qator yutuqlarimiz ham mavjud Oʻzbekiston hududida 7300 ga yaqin tarixiy madaniy obyektlar aniqlangan, bir nechta qoriqxonalar va milliy bogʻlar mavjud, 300 dan ortiq shifobaxsh yer osti mineral suv manbalari bor.

Mamlakatimizda mavjud turistik resurslar orasida madaniyat maskanlarini oʻrni alohida ahamiyatga ega. Biz bulardan keng foydalanib turizm sohasini imkon qadar rivojlantirmogʻimiz kerak. Xoʻsh, buni qanday amalga oshiramiz? Turizm sohasida asosiy muammolar nimada? Avvalo shularni aniqlash kerak. Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun mavjud resurslar yetarlicha. Afsuski, koʻpchiliklari eʼtiborga muxtoj. Ularni tamirlash va obodonlashtirish orqali biz nafaqat ichki turizm balki tashqi turizm salohiyatini oshiramiz. Iqtisodga ham bevosita taʼsir koʻrsatamiz. Ziyoratgohlar yonida yemakxona, savdo doʻkonchalari, hamomlar tashkillashishi oqibatida qoʻshimcha ish oʻrinlari yaratiladi va aholi daromadi oshishiga shuningdek kambagʻallikni qisqartirishga olib keladi. Oʻzbekiston katta tarixiy-madaniy merosga qadimiy-meʼmoriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning koʻpchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz,

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

Qo‘qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan.

Nahotki shuncha tarixiy va boy madaniy meroslarimiz bo‘la turib, ularni dunyoga tanita olmasak? Buning uchun bizda arzigulik va maqtagulik boy tarixiy merosimiz yetarli. Birgina Fransiyaning Parij shahriga yiliga 15 million sayyoh tashrif buyurar ekan. Biz esa har yili sayyohlar sonini sanashdan, o‘tgan yildagidan biroz ko‘paygan bo‘lsa, uni baralla ovoza qilishdan nariga o‘tmaypmiz. Nahotki yirik bir sayyohlik salohiyatiga ega davlat bo‘la turib, bitta shaharchalik natijaga erisha olmasak?

Maqola so‘ngida shuni keltirib o‘tamizki yurtimiz ravnaqi yo‘lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar negizida Vatan, xalq manfaati turibdi. Barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilyapti. Bunday ijobiy o‘zgarishlar, rivojlanishni yangi bosqichga ko‘tarish uchun, hammamiz o‘z vazifamizni chin yurakdan ado etishimiz, fidoyi bo‘lishimiz lozim. Turizmni rivojlantirish har tomonlama davlatga va aholiga foyda. Milliy qadriyatlarimizni jahonga tanitish , ular bizning milliyligimizni etirof etishlari albatta bizni quvontiradi. Biz yoshlar mana shuning uchun harakatdamiz

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1.Sh. M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak . Tashkent : O‘zbekiston, 2017 y.,104 b.

2.M.Amonboev, N.Juraeva —Turizm iqtisodiyoti bva menejmentil o‘quv uslubiy majmua. – T;TDIU 2018

3. Christopher Dougherty. Introduction to econometrics. 2011. 336 p.

4.uzbekturizm.uz ma‘lumotlari.